



O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA TA'MINOT ZANJIRINING TA'SIRI VA AHAMIYATI

i.f.n., dots. Ismoilova Gulnora

Al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

ORCID: 0000-0002-0740-3510

ismailova@tuit.uz

Pardaboyeva Xusnora

Al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

ORCID: 0009-0002-8553-621X

xusnorapardaboyeva3@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston iqtisodiyotida ta'minot zanjirining ta'siri va ahamiyati tahlil qilingan. Xususan, logistika tizimining milliy iqtisodiyotdagi o'rni, uning rivojlanish tendensiyalari hamda mavjud muammolar va ularning yechimlari ko'rib chiqilgan. Ta'minot zanjiri infrastrukturasi zamonaviy holati, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash choralari va xalqaro logistika tarmoqlarini rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar berilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, O'zbekistonda ta'minot zanjiri samaradorligini oshirish uchun raqamli texnologiyalardan foydalanish, transport infratuzilmasini takomillashtirish va mintaqaviy hamkorlikni kengaytirish zarur.

Kalit so'zlar: ta'minot zanjiri, logistika, transport, iqtisodiy samaradorlik, raqamlashtirish, eksport, import.

ВЛИЯНИЕ И ЗНАЧЕНИЕ ЦЕПОЧКИ ПОСТАВОК В ЭКОНОМИКЕ УЗБЕКИСТАНА

к.э.н., доц. Исмоилова Гульнора

Ташкентский университет информационных технологий имени Аль-Хоразмий

Пардабоева Хуснора

Ташкентский университет информационных технологий имени Аль-Хоразмий

Аннотация. В данной статье анализируется влияние и значение цепочки поставок в экономике Узбекистана. В частности, рассматривается роль логистической системы в национальной экономике, тенденции ее развития, а также существующие проблемы и их решения. Дается оценка современного состояния инфраструктуры цепочки поставок, мер государственной поддержки и рекомендации по развитию международных логистических сетей. По результатам исследования, для повышения эффективности цепочки поставок в Узбекистане необходимо использование цифровых технологий, совершенствование транспортной инфраструктуры и расширение регионального сотрудничества.

Ключевые слова: цепочка поставок, логистика, транспорт, экономическая эффективность, цифровизация, экспорт, импорт.

IMPACT AND SIGNIFICANCE OF SUPPLY CHAIN IN THE ECONOMY OF UZBEKISTAN

PhD, assoc. prof. Ismoilova Gulnora
Tashkent University of Information
Technologies named after Al-Khwarizmi
Pardaboyeva Khusnora
Tashkent University of Information
Technologies named after Al-Khwarizmi

Abstract. *This article analyzes the impact and significance of the supply chain in the economy of Uzbekistan. In particular, it examines the role of the logistics system in the national economy, its development trends, as well as existing problems and their solutions. An assessment of the current state of the supply chain infrastructure, government support measures, and recommendations for the development of international logistics networks are provided. According to the research results, to increase the efficiency of the supply chain in Uzbekistan, it is necessary to use digital technologies, improve transport infrastructure, and expand regional cooperation.*

Keywords: *supply chain, logistics, transport, economic efficiency, digitalization, export, import.*

Kirish.

Ta'minot zanjiri zamonaviy iqtisodiyotning ajralmas qismi bo'lib, mahsulot ishlab chiqaruvchidan to iste'molchigacha bo'lgan harakatini ta'minlaydigan tizimni o'z ichiga oladi. O'zbekistonning geografik joylashuvi — Markaziy Osiyoning markazida, dengizga chiqish imkoniyatiga ega bo'lmagan davlat sifatida — ta'minot zanjiri va logistika tizimining samarali ishlashini yanada muhim qiladi. So'nggi yillarda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar doirasida logistika va ta'minot zanjirini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Bugungi kunda, global raqobat va tez o'zgaruvchan iqtisodiy sharoitlarda, ta'minot zanjirining samaradorligi milliy iqtisodiyot va biznes sub'ektlari raqobatbardoshligining muhim omili hisoblanadi. O'zbekiston iqtisodiyotini diversifikatsiya qilish, eksport salohiyatini oshirish va investitsion jozibadorlikni kuchaytirish uchun zamonaviy logistika tizimlarini joriy etish zaruriyati ortib bormoqda.

Ushbu maqola O'zbekiston iqtisodiyotida ta'minot zanjirining o'rni va ahamiyatini tahlil qilishga, sohada mavjud muammolarni aniqlashga va ularni hal qilish yo'llarini taklif qilishga qaratilgan. Xususan, logistika tizimining rivojlanish tendensiyalari, transport infratuzilmasi holati, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash choralari hamda raqamli texnologiyalarni joriy etish imkoniyatlari batafsil o'rganiladi.

Adabiyotlar sharhi.

Ta'minot zanjiri va logistika sohasidagi tadqiqotlar ko'plab olimlar tomonidan o'rganilgan bo'lib, ular orasida O'zbekistonlik mutaxassislarning ham ishlari mavjud. Bakhtiyar Makhkamov va Gulnora Ismoilovanning "Peculiarities of geo-economic formation of e-commerce infrastructure" (2022) maqolasida elektron tijorat infratuzilmasining geo-iqtisodiy shakllanishi, shahar tuzilmalarining bozor infratuzilmasini takomillashtirish yo'nalishlari va bu jarayonning mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta'siri tahlil qilingan.

"Ta'minot zanjirida boshqaruvni tashkil etish" Dinara Ishmanova, Alimardon Zoirov, Ahmadxon Jalolov (2024), ta'minot zanjiri ko'plab sanoat tarmoqlarining asosini tashkil etadi, bu esa tovarlar va xizmatlarning xom ashyo etkazib beruvchilardan yakuniy iste'molchilarga uzluksiz oqib borishini ta'minlaydi. Ta'minot zanjirida samarali boshqaruv operatsion samaradorlikka erishish, xarajatlarni kamaytirish va mijozlar ehtiyojini qondirish uchun juda muhimdir. Ushbu maqola ta'minot zanjirida boshqaruvni tashkil etishning asosiy tamoyillari va strategiyalarini o'rganadi.

Xorijiy tadqiqotchilardan Christopherning (2022) "Logistics and Supply Chain Management" asarida ta'minot zanjiri boshqaruvining zamonaviy konsepsiyalari, globalashtirish sharoitida logistikaning o'zgarishi va barqaror rivojlanish tamoyillari batafsil yoritilgan. Muallif logistik jarayonlarni optimallashtirishning innovatsion usullarini taklif etadi.

"Ta'minot zanjirini tushunish: Samarali biznes yuritishning asosiy omil" Iskandar Makhmudov. Ushbu maqola samarali ta'minot zanjiri kompaniyalarga xarajatlarni optimallashtirish, mahsulot sifatini ta'minlash, yetkazib berish muddatlarini qisqartirish va mijozlar talablariga tezkor javob qaytarish imkonini beradi. Shu bilan birga, ta'minot zanjirining uzilishi yoki buzilishi jiddiy moliyaviy yo'qotishlarga va kompaniya obro'si tushishiga olib kelishi mumkinligi haqida

Ushbu adabiyotlar sharhi O'zbekistonda ta'minot zanjiri va logistika sohasidagi tadqiqotlarning asosiy yo'nalishlari va mavjud bilimlar bazasini aniqlashga imkon beradi. Mazkur tadqiqotlar milliy iqtisodiyotda logistika tizimining rolini, uning rivojlanish tendensiyalarini va samaradorligini oshirish yo'llarini tushunishga yordam beradi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu tadqiqotda O'zbekiston iqtisodiyotida ta'minot zanjirining ta'siri va ahamiyatini o'rganish uchun kompleks yondashuv qo'llanilgan. Tadqiqot jarayonida quyidagi metodlardan foydalanilgan:

Tizimli tahlil metodi - O'zbekistonda ta'minot zanjiri va logistika tizimining tuzilishi, uning elementlari va ular o'rtasidagi o'zaro aloqalarni aniqlash uchun qo'llanilgan.

Statistik tahlil metodi - O'zbekistonda transport va logistika sohasining rivojlanish dinamikasini, asosiy ko'rsatkichlarini tahlil qilish hamda tendensiyalarni aniqlash uchun foydalanilgan. Ushbu metod orqali yuk tashish hajmi, transport turlari bo'yicha tashish ko'rsatkichlari, logistika xarajatlari va boshqa muhim statistik ma'lumotlar o'rganilgan.


Tadqiqot uchun ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi, Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi, Transport vazirligi, Markaziy Osiyo mintaqaviy iqtisodiy hamkorlik dasturi (CAREC) va boshqa rasmiy manbalardan olindi. Shuningdek, ilmiy maqolalar, tadqiqot ishlari va hisobotlardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

O'zbekiston Markaziy Osiyoning yuragida joylashgan davlat bo'lib, strategik muhim geografik o'ringa ega. Biroq, dengizga to'g'ridan-to'g'ri chiqish imkoniyatining yo'qligi transport va logistika tizimini rivojlantirishda qo'shimcha qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. So'nggi yillarda O'zbekistonda logistika va ta'minot zanjiri sohasida sezilarli o'zgarishlar kuzatilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilda mamlakatda yuk tashish hajmi 1,5 milliard tonnani tashkil etdi, bu 2020-yilga nisbatan 12% ga ko'pdir. Bu mamalaktimizda yuk tashish hajmi sezilarli darajada ko'tarilganligidan dalolat beradi. Yuk aylanmasi esa 79,2 milliard tonna/km ni tashkil etdi. Transport turlari bo'yicha yuk tashish tarkibida avtomobil transporti 85%, temir yo'l transporti 12%, havo transporti 0,5%, quvur transporti 2,5% ni tashkil etadi. Ushbu ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki hozirgda to'g'ri yo'lga qo'yilgan ta'minot zanjiri boshqaruvi, nafaqat elektron tijoratda balki mamalakatimiz iqtisodiyotida ham muhim o'rin egallab kelmoqda.

Mamlakatda logistika infratuzilmasi rivojlanib bormoqda. Hozirgi vaqtda O'zbekistonda 20 dan ortiq zamonaviy logistika markazlari faoliyat ko'rsatmoqda. Aksariyat logistika markazlari Toshkent viloyati, Samarqand va Buxoro shaharlarida joylashgan. Bu markazlar yuk tashish, saqlash, qayta ishlash va taqsimlash xizmatlarini ko'rsatadi. Bundan tashqari ushbu markazlar chegara orti hududlarga ham yetkazib berish imkoniyatiga ega va bunday fullfilment markazlar soni kundan kunga ortmoqda.



1-rasm. O'zbekistonda transport turlari bo'yicha yuk tashish tarkibi (2023-yil)

Manba: O'zbekiston Resoublikasi milliy statistika qo'mitasi (STAT) 2023.

Dunyo banki tomonidan chop etiladigan Logistika samaradorligi indeksi (LPI) bo'yicha O'zbekiston 2023-yilda 167 mamlakat orasida 118-o'rinni egalladi. Bu ko'rsatkich 2018-yilga nisbatan 20 pozitsiyaga yaxshilangan bo'lsa-da, hali ham mintaqadagi boshqa davlatlarga nisbatan past hisoblanadi.


Sababi O'zbekistonda ta'minot zanjiri samaradorligiga ta'sir qiluvchi bir qancha asosiy muammolar quyidagilardir:

Transport infratuzilmasining yetarli darajada rivojlanmaganligi - Temir yo'l va avtomobil yo'llarining texnik holati, logistika markazlari bilan bog'langan transport yo'llari sifatining pastligi.

Tartibga solish va ma'muriy to'siqlar - Bojxona protseduralarining murakkabligi, hujjatlashtirish va tekshiruvlar soni ko'pligi, turli nazorat organlariga hisobot berish zaruriyati.

Raqamlashtirish darajasining pastligi - Ta'minot zanjirida zamonaviy raqamli texnologiyalar (blokchein, sun'iy intellekt, bulutli hisoblash) dan foydalanish darajasining pastligi.

Kadrlar tayyorlash masalalari - Logistika va ta'minot zanjiri boshqaruvi sohasida malakali mutaxassislarning yetishmasligi.



2-rasm. Logistika xarajatlarning YIMdagi ulushi bo'yicha mamlakatlar qiyosi (2023-yil)

Ta'minot zanjiri va logistika tizimining samaradorligi O'zbekiston iqtisodiyotiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Xalqaro tadqiqotlarga ko'ra, logistika xarajatlari O'zbekistonda YIMning 20-22% ni tashkil etadi, bu ko'rsatkich rivojlangan davlatlardagi o'rtacha 8-10% ga nisbatan ancha yuqori hisoblanadi.

Yuqori logistika xarajatlari O'zbekiston mahsulotlarining raqobatbardoshligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, eksport imkoniyatlarini kamaytiradi va ichki bozorda narxlarning oshishiga olib keladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, transport va logistika xarajatlarining 10% ga qisqarishi eksport hajmini 8-9% ga oshirish imkonini beradi.

Ta'minot zanjiri samaradorligi quyidagi yo'nalishlarda O'zbekiston iqtisodiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. **Eksport salohiyatini oshirish** - Samarali logistika tizimi eksport qilayotgan mahsulotlarning narxini kamaytiradi va xalqaro bozordagi raqobatbardoshligini oshiradi. **Ishlab chiqarish samaradorligini oshirish** - Just-in-time va boshqa zamonaviy ta'minot usullarini joriy etish orqali, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish va mahsulot sifatini oshirish mumkin. **Tashqi savdo hajmini kengaytirish** - Samarali ta'minot zanjiri tashqi savdo operatsiyalari xarajatlarini kamaytirib, savdo hajmini oshiradi.

Investitsion jozibadorlikni oshirish - Rivojlangan logistika tizimiga ega hududlar investorlar uchun jozibadorroq bo'ladi. **Yangi ish o'rinlarini yaratish** - Logistika markazlari, transport kompaniyalari va yordamchi xizmatlar sohasida yangi ish o'rinlari yaratiladi.

O'zbekistonda logistika sohasining rivojlanishida so'nggi yillarda amalga oshirilgan islohotlar muhim rol o'ynadi. 2019-2023 yillarda logistika va transport sohasiga 4,5 milliard dollardan ortiq investitsiyalar kiritildi. Bu mablag'lar asosan temir yo'l va avtomobil yo'llarini modernizatsiya qilish, logistika markazlarini qurish va transport korxonalarini texnik jihatdan yangilashga yo'naltirildi. Bundan tashqari hozirgi kunda Afg'oniston orqali Eronga olib chiquvchi temir yo'l qurilishi olib borilmoqda.

Texnika davrida Yashar ekanmiz, O'zbekistonda ta'minot zanjiri samaradorligini oshirish uchun raqamli texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda rivojlangan davlatlarda logistika jarayonlarini raqamlashtirish tez sur'atlarda amalga oshirilmoqda. Bu tendensiya O'zbekiston uchun ham dolzarb hisoblanad. Tadqiqotlar natijalariga ko'ra, O'zbekistonda logistika kompaniyalarining atigi 30% dan kam qismi logistika jarayonlarini boshqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanadi. Bu ko'rsatkich rivojlangan davlatlarda 70-80% ni tashkil etadi.

O'zbekistonda ta'minot zanjirini raqamlashtirish quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirilmoqda:

- **Elektron hujjat almashinuvi tizimlarini joriy etish** - Bojxona, transport va savdo operatsiyalarini elektron hujjatlar orqali amalga oshirish. "Yagona oyna" tizimini rivojlantirish.

- **Transport va logistika jarayonlarini avtomatlashtirish** - Omborlar, transport vositalari va yuk oqimlarini avtomatik boshqarish tizimlarini joriy etish.

- **Ma'lumotlar tahlili va monitoring tizimlarini rivojlantirish** - Logistika jarayonlarini real vaqt rejimida kuzatish va nazorat qilish, analitika asosida qaror qabul qilish.

- **Bulutli texnologiyalardan foydalanish** - Logistika kompaniyalari o'rtasida ma'lumot almashinuvini yaxshilash, xarajatlarni kamaytirish va tizim integratsiyasini ta'minlash.

O'zbekiston hukumati tomonidan 2022-2026 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida logistika va ta'minot zanjirini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgan. Ushbu strategiya doirasida transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish, logistika markazlarini rivojlantirish va raqamli texnologiyalarni joriy etish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar belgilangan.

Xulosa va takliflar.

O'zbekiston iqtisodiyotida ta'minot zanjirining ta'siri va ahamiyati juda katta bo'lib, samarali logistika tizimi milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligi va barqaror rivojlanishining muhim sharti hisoblanadi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, O'zbekistonda ta'minot zanjiri sohasida

sezilarli ijobiy o'zgarishlar kuzatilmoqda, biroq sohani rivojlantirish uchun hali ko'p ishlar qilinishi lozim.

O'zbekistonda logistika xarajatlarining YIMdagi ulushi rivojlangan davlatlarga nisbatan yuqori bo'lib qolmoqda, bu esa mahsulotlar raqobatbardoshligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Transport infratuzilmasining yetarli darajada rivojlanmaganligi, ma'muriy to'siqlar va raqamlashtirish darajasining pastligi ta'minot zanjiri samaradorligini pasaytiruvchi asosiy omillar hisoblanadi.

Ta'minot zanjiri samaradorligini oshirish uchun raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, logistika markazlari tarmog'ini kengaytirish, transport infratuzilmasini takomillashtirish va mintaqaviy hamkorlikni kuchaytirish zarur. Bunday chora-tadbirlar eksport salohiyatini oshirish, ishlab chiqarish samaradorligini ko'tarish va investitsion jozibadorlikni kuchaytirish orqali O'zbekiston iqtisodiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Yuqorida keltirilgan tahlillar va tavsiyalar O'zbekistonda ta'minot zanjiri va logistika tizimini rivojlantirish bo'yicha strategik qarorlar qabul qilish uchun asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Adabiyotlar /Jumepamypa/Reference:

"Logistika samaradorligi indeksi" haqida Jahon banki (LPI) hisoboti (2023).

Ablazov, L., Xurramov, R., & Xoliyarov, F. (2024). *BULUTLI HISOBLASH XIZMATLARINING BUGUNGI HOLATI: AFZALLIKLARI VA KAMCHILIKLARI*. *Raqamli Iqtisodiyot Va Axborot Texnologiyalari*, 4(1), 65–71. Retrieved from <https://dgeconomy.tsue.uz/index.php/dgeco/article/view/138>.

Christopher M. (2022) "Logistics and Supply Chain Management".

Ishmanova, D., Zoirov, A., & Jalolov, A. (2024). *TA'MINOT ZANJIRIDA BOSHQARUVNI TASHKIL ETISH*. *Raqamli Iqtisodiyot Va Axborot Texnologiyalari*, 4(4), 92–99. Retrieved from <https://dgeconomy.tsue.uz/index.php/dgeco/article/view/282>.

Makhkamov B., Ismoilova G.F. (2022) *Elektron tijorat infratuzilmasi va uning geoiqtisodiy ahamiyati. innovations in Technology and Science Education*, 2 (10), 974–983.

Farmon (2022) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.